

**MADANIYAT VA SAN'AT MUASSASALARINI ZAMONAVIY
GALOGRAMMALASHTIRISH TAMOIYILLARI.**

Sobirjonov Jaxongir Sodiqjon o'g'li

O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti

Madaniyat va san'at muassasalarini tashkil etish

hamda boshqarish yo'nalishi 3 bosqich talabasi

Annotatsiya: Mazkur ilmiy maqolada madaniyat va san'at muassasalarida zamonaviy galogramma texnologiyalarini joriy etishning ilmiy nazariy asoslari va amaliy ahamiyati tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: San'at, galogramma, raqamli texnologiyalar, madaniyat muassasalari, innovatsiya, jonli eksponat.

Kirish: Hozirgi kunda axborot texnologiyalari shunday rivojlandiki, har bir jabhaning, har lahzaning yechimi sifatida qabul qilinmoqda. Qaysi soha tarkibiga nazar tashlamang barchasida axborot texnologiyalarining kuchiga guvoh bo'lasiz. Agar qo'limizda telefon qurilmalari, zamonaviy til bilan aytganda (gadgetlar) bo'lmasa, o'zimizni bir katta bo'shliqda his qila boshlaymiz.

Bugungi kunga kelib muvaffaqiyatli inson bu o'ziga kerakli va manfaatli axborotlarni o'rganib insonlarga foydali bo'lgan jarayonni tashkil qilsa, axborot texnologiyalaridan foydalanish haqiqiy izlanish deb baholanadi. Raqamli texnologiyalarning kundan kunga rivojlanishi har bir sohada o'ziga xos yondashuvni talab qilmoqda.

Asosiy qism: Biz lazerlar, rentgen nurlari kabi atamalarni kundalik hayotimizda ko'p bora eshitganmiz. Endilikda bu texnologiyalar rivojlanishi va

turli yo'nalishlarda tarkibiy qismiga aylanishi bilan zamonaviy galogrammalar (hologramma) atamasi vujudga kela boshladi. Fan, innovatsiya ishlab chiqarishning katta kuchiga aylanib borayotgan galogramma haqida so'z yuritganda lazerlarning ixtiro qilinishi, ishlatilishiga to'xtalib o'tish lozim. Lazerlarni ixtiro qilinishida amerikalik fizik, muhandis Teodor Garold Maiman tomonidan 1960- yilda ixtiro qilingan va birinchi marta ishlatilgan. Aynan shu ixtironing takomillashuvi galogrammalar yaratilishiga turtki bo'lgan.

Galogramma (yun- halos-butkul, to'liq va grafil) so'zlaridan olingan bo'lib, bu 3D o'lchamli ko'zga ko'rinadigan tasvir bo'lib, u infra nurlarning fazoviy lazear orqali tasvir hosil qilinadigan video yoki rasm holatidagi shakli hisoblanadi. Galogrammani ishga tushirish jarayonida obyektga lazer nuri yo'naltiriladi, nur obyektidan qaytib interfrensiya(ranglarning bir biriga qo'shilishi) orqali galogramma hosil bo'ladi.

Zamonaviy galogrammalar hozirgi kunda rivojlangan davlatlar ishlab chiqarish jarayonlari, ta'lim tadqiqotlarida keng foydalanilmoqda. Rossiya federatsiyasida galogrammalardan ob havo ma'lumotlarini e'lon qilish anonslarida foydalanib sinovdan o'tkazishgan. Qo'shni davlatlardan Turkmanistonda 3D galogrammalar muzeylarga gid sifatida o'rnatilgan. Ushbu galogrammalar har bir eksponat haqida batafsil ma'lumot berishi bilan tavsiflanadi. Shu omillarni hisobga olgan holda 3D zamonaviy galogrammalarini san'at va madaniyat muassasalarida qo'llash har qachongidan zarur chora hisoblanadi. Bugungi kunda muzeylar, teatrlar va istirohat bog'lari auditoriya va insonlarni jalb qilishda, ish samaradorligini oshirishda qiyinchiliklarga duch kelayotganligi hammamizga ma'lum. Agar zamonaviy galogrammalar teatr sohasiga kirib kelsa faoliyat va odamlarni jalb qilish qanchalik o'zgarar edi? degan savol ko'pchilik soha odamlarini qiynagani tabiiy. Zamonaviy galogrammalar teatr faoliyatida joriy qilinsa, tomoshabinni muhitga olib kirish kerak bo'lmaydi. Tomoshabin teatr eshigidan kirgandan boshlab u uchun teatr boshlanadi. Tasavvur qilinsa teatr sahnasida

malakali aktyor rol ijro etmoqda. Aktyor bilan bir sahnada galogramma aktyor sifatida sahnada epizod yaratadi. Shuningdek galogrammalar tomoshabinlar o'z o'rniga o'tirguncha ularga o'z sevgan qahramonlari ko'rinishida hamrohlik qiladi. Bu tomoshabin ongida bir umrga muhrlanadi va albatta teatrga tashrifni yanada oshiradi.

Muzeylar timsolida nazar solsak, muzeylarda galogrammalaridan onlayn gid, jonli eksponat sifatida foydalanish katta ustunlik beradi. Tasavvur qilaylik, Amir Temur bobomizning galogrammadagi ko'rinishlari bizga xuddi jonli qarab turgandek, bobomiz bizga mag'rur qarab turadi qo'lida esa barchamiz bilgan qilich va qalqon. Ahamiyatli tomoni shundaki muzeyda har bir eksponat shunday jonlanadi. Eksponatlar tarixini ham harakatlanuvchi ko'rinishi ham audi gid yordamida eshitib ham ko'rish mumkin.

Zamonaviy galogrammlarni istirohat bog'lariga kiritish bu tarmoqlar orasida yaxshi natijaga erishishga xizmat qiladi. Zamonaviy galogrammalar istirohat bog'lari hududining kirish joyidan to odamlar chiqish joyigacha maxsus nuqtalarga o'rnatiladigan bo'lsa, dam oluvchilar ayniqsa bolalar ushbu g'ayritabiiy muhitdan chiqib ketolmay qoladi. Istirohat bog'ining asosiy hududi haqiqiy animatsion olamga aylanadi. Ushbu jarayon nafaqat yosh bolalarni quvontiradi balki istirohat bog'laridagi yillik tashrifni yanada ko'paytiradi.

Xulosa; Xulosa qilib aytganda, zamonaviy galogramma texnologiyalarini san'at va madaniyat muassasalarida qo'llash zamonaviy badiiy tafakkurni yuzaga keltiradi. Shuningdek O'zbek tarixini, nomoddiy madaniy merosini zamonaviy shaklda tadqiq etish, o'rganish va saqlab qolishning zamonaviy shakli sifatida gavdalanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. S.Otamurodov. Madaniyatshunoslik asoslari- Toshkent. Fan 2016.
2. A.Erkayev. San'at falsafasi. Toshkent. Ma'naviyat.
3. R.Qodirov. Zamonaviy san'at jarayonlari- Toshkent. Akademnashr 2020.

4. M. Jo'rayev. Nomoddiy madaniy meros. Toshkent 2017.
5. Madaniy merosni raqamlashtirish masalalari. Toshkent.O'z FA nashriyoti 2019.
6. O'zbekiston milliy ensiklopediyasi san'at va madaniyatga oid maqolalar. Toshkent. 2015.